

TILSHUNOSLIKDA OLAMNING LISONIY VA KONSEPTUAL MANZARASI TUSHUNCHALARI

Kaipbergenova Dilbar Orakbaevna

I. Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Amaliy Ingliz Tili Kafedrası Katta O'qituvchisi

Olamning lisoniy manzarasi lingvomadaniyatshunoslikdagi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, u insonning nutqida aks etadigan olamni idrok etishi hodisasiga asoslanadi. T.Y.Yakovleva olam lisoniy manzarasini tilda mavjud va shu tildan foydalanayotgan kishilar jamoasi uchun maxsus bo'lgan borliqni qabul qilish sxemasi deb tushunishni taklif qiladi ¹.

Shaxsiy tajriba jarayonida orttirilgan bilim til orqali "jamoaviy mulkka, jamoaviy tajribaga aylanadi", olamning konseptual manzarasiga aylanadi. U insonning mentaliteti va ma'naviy faoliyati, uning atrofidagi olam, uning madaniyati haqidagi bilimlari natijasini aks ettiradi. Hozirgi zamon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi deganda, an'anaviy ravishda, tilda o'z aksini topgan olam haqidagi bilimlar majmuasi tushuniladi. Binobarin, "olamning milliy lisoniy manzarasi" terminini qo'llashda va talqin qilishda bir to'xtamga kelingan: "Tillar qancha bo'lsa, olamning shuncha milliy lisoniy manzarasi mavjud, bu tillarning har biri jamoaviy etnik ongning koinotdagi inson mavjudligini anglash va kategoriyalashtirish borasidagi ko'p asrlik faoliyatining noyob natijalarini aks ettiradi". "Olam manzarasi" atamasini tor ma'noda ham talqin qilish mumkin: olam tasviri muayyan tarixiy davrda shakllangan va turli bosqichlarda o'zgarishlarga uchragan muayyan fandagi predmetlarning umumiy tarzda namoyon bo'lishini o'zida aks ettirgan ma'lum bir fandagi jamiki bilimlar majmui va tizimidir, aynan shu sababli "olamning lisoniy (biologik, fizik, milliy) manzarasi", singari atamalar mavjud².

Ertaklarni antroposentrizm doirasida tadqiq qilish afsonani o'tmishning begonalashgan elementi sifatida emas, balki jonli hozirgi zamon elementi sifatida o'rganishimizga imkon beradi, chunki insoniyat doimo qayta o'ylash amaliga murojaat etadi, demak u afsonadan o'zi haqida o'ylash, o'ziga xosligini anglash, inson omilining ta'sirida to'plangan yangi bilimlarni uzatish uchun foydalanadi va bunday jarayonlarning natijasi tilda aks etadi. Sh.S.Safarovning ta'kidlashicha, kognitiv tilshunoslik uchun olam haqidagi bilimning tilda aks topishi va ushbu bilimning shakllanishida tilning hissasi muhimdir. Bu yo'nalishni tanlagan

¹ Яковлева Т.Е. Системный анализ английских переходных глаголов. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1980. – С. 21.

² Пименова М.В. Типы концептов. URL:http://www.kuzspa.Ru/diss/conf_27_28/5_pimenova.doc.



tadqiqotchi tilni voqelik, dunyoni bilish vositasi sifatida qabul qilib, ma'noni, uning hosil bo'lishi va rivoji tahlilini birinchi o'ringa qo'yadi³. A.E.Mamatovning qayd etishicha, kognitivlik "olam konseptual manzarasini shakllantirish va tilda aks ettirish, bilimlarni lisoniy vositalar orqali tizimlashtirish" kabi jarayonlar bilan bog'liq⁴.

Tadqiqotchilar lisoniy belgining shakllanishi ko'p bosqichli jarayon ekanligini ko'p bora ta'kidlashgan. Ushbu jarayonning dastlabki bosqichida olamdagi obyektlarni ko'rish, sezish orqali idrok etish amallari bajariladi, so'ng esa ushbu obyektlar haqida tasavvur, tushuncha yuzaga keladi (ya'ni konseptual bosqich amallari bajariladi), nihoyat eng oxirgi bosqichda konseptning lisoniy voqelanishi bilan bog'liq amallarga ehtiyoj tug'iladi. Ushbu amallardan eng asosiysi konseptuallashuv amali bo'lib, u voqelik haqidagi bilimning aniq tus olishi hamda lisoniy belgining tanlanishida yetakchilik qiladi⁵. Konseptuallashuv faoliyati ham, o'z navbatida, ko'p bosqichli bo'lib, uning bajarilishi turli amallar ijrosini talab qiladi.

Konseptual tizim o'z ichki tuzilishiga ega va uning rivoji bir qator doimiy harakatlar ijrosi bilan bog'liq. Shunday dinamik harakatlardan biri konseptual derivatsiyadir. Bilishimizcha, konseptual derivatsiya aslida kognitiv faoliyatning bir turi, chunki u insonning lisoniy bilim boyligini yangi bilim strukturalarini hosil qilish yo'li bilan oshiradi. Birinchi marta "konsept" ("concept") atamasi Arastu (Aristotel) tomonidan qo'llanilgan, keyin 1892 yilda faylasuf G. Frege obyektini va uning g'oyasini ajratishni taklif qilgan (har qanday jumla to'liq fikrni ifodalaydi, til falsafiy aniqlash orqali belgilaydi). R.M. Frumkinaning fikriga ko'ra: "aynan lingvistikaning falsafa, psixologiya va madaniy antropologiya bilan o'zaro ta'siri natijasida lisoniy semantikada konsept, kategoriya, prototip atamalari paydo bo'ldi"⁶. Yangi bilim strukturalari – konseptning paydo bo'lishi avvalgi konseptlar negizida kechadi. Bu insonning konseptual tizimida mavjud bo'lgan bilimlar lisoniy belgi ko'rinishini olganlaridan so'ng til tizimida yangi ma'nolarni anglatuvchi boshqa (ikkilamchi) nominativ birliklarni yaratish ehtiyoji va imkoniyatining tug'ilishidan darak beradi. Xuddi shu yo'sindagi bilish faoliyatida yaratiladigan yangi konseptlar, ular lisoniy belgi ko'rinishini olganlaridan so'ng, konseptual tizimning ajralmas qismiga aylanadilar hamda uning istiqboldagi rivoji uchun asos yaratadilar. Masalan,

³ Сафаров Ш. Семантика. – Ташкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» ДИН, 2013. – Б. 217.

⁴ Маматов А.Э. Тилга кognитив ёндашувнинг моxияти нимада. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2012. – Б. 212-221.

⁵ Сафаров Ш. Кognитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 19-34.

⁶ Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва: Наука, 1996. – С. 196.



“stepmother/o‘gay ona” konsepti *yovuz, johil, berahm, wicked* kabi ikkilamchi nominativ ma‘nolarga ega:

- Nature is the mother and the habitat of man, even if sometimes a stepmother and an unfriendly home ⁷;
- Dr. R.Katz knows all too well how challenging stepmotherhood can be⁸;
- I never had that wicked stepmother or evil stepfather thing at all. I am very close to both stepparents and I consider them to be my parents, too⁹;
- Half of all women in the US will live with or marry a man with children. To guide women new to this role – and empower those who are struggling with it – who draws upon her own experience as a stepmother¹⁰;
- Onang o‘gay bo‘lsa, otang o‘zingniki emas;
- The classic tale of Cinderella is told by her stepmother, who was not really so wicked after all¹¹ gaplarida unfriendly home, stepmotherhood, wicked stepmother, evil stepfather, experienced stepmother konseptual birliklari yaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Shuningdek, resourceful stepmother, happy stepmother, stepmonster, praised stepmother yoki poetic stepmother konseptual birliklarini uchratish mumkin. Tadqiqotimizda konseptual tahlil obyekti sifatida “o‘gay ona” konseptini tanlagan ekanmiz, “olamning lisoniy manzarasi”da odamning ichki qiyofasini tasvirlash usuli ishlab chiqilganligi, bunday tahlil usuli insonning ma‘naviy turmushini aks ettiruvchi (“aql”, “tuyg‘u”, “zakovat”) alohida konseptlar tahlilidan hosil bo‘lishi, yoki boshqa semantik va semiotik kategoriyalar (uzoq-yaqin, old-orqa, uzun-qisqa) tahlili orqali shakllantirilishi mumkinligini yana bir bor ta‘kidlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Olamning konseptual manzarasi konseptlardan tashkil topgan muayyan obrazlar majmui sifatida olamning lisoniy manzarasidan kengroq va boyroq, chunki olam haqidagi ma‘lumotlar inson ongida nafaqat verbal balki noverbal ravishda ham kodlanadi. Shu sabab olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga nisbatan murakkabroq, chunki milliy til konseptosfera ichida “yashaydi”¹².

Muayyan til egalari ongida shakllangan olamning lisoniy manzarasi asosan insonning hayotiy ehtiyojlariga, ya‘ni mehnat faoliyatining muhim turlariga mos keladi. Qadriyatlarga xos qarashlarning o‘zgarishiga an‘anaviy turmush tarzi ham muayyan darajada ta‘sir qiladi. V.A.Maslovaning fikricha, odamlar nisbatan

⁷ Dewey, J. Experience and education. – New York: Macmillan, 1938 – P. 42.

⁸ **Rachelle Katz. The Happy Stepcouple. – New York, 2020. – P. 78.**

⁹ Mark Ronson. Lost at Sea: The Jon Ronson Mysteries. – Picador, 2013. – P. 11.

¹⁰ Wednesday Martin. Primates of Park Avenue. – London, 2019. – P. 32.

¹¹ Trisha Shaskan. Punk Skunks. – Capstorie, 2016. – P. 13.

¹² Гришаева Л.И., Цурикова Л.В. Введение в теорию межкультурную коммуникацию. – Москва, 2007. – С. 101.



ko‘proq uchratadigan narsalar, voqealar, predmetli-obrazlar etaloni tasavvurlar yig‘indisi sifatida birlashib, obyektiv borliqni aks ettiradi va bu olamning umumiy lisoniy manzarasini hosil qiladi¹³.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan olamning lisoniy manzarasi olamning konseptual manzarasining verballashgan qismi, shuningdek, uning lisoniy shakllarda ifodalangan bilimlari yig‘indilarini hisobga oladigan chuqur va yuqori qatlamlaridir, degan xulosaga kelish mumkin. Bu o‘rinda ayrim tadqiqotchilarning fikrlarini ham alohida ta’kidlash joiz. Olamning lisoniy manzarasi deyilganida biz tilda o‘z aksini topgan va muayyan lisoniy jamoaga xos bo‘lgan olamni idrok qilish andozasini tushunamiz. Misol tariqasida, “stepmother” konseptining xalq orasida qo‘llaniladigan variantlarini keltirib o‘tish mumkin: – *To be sure a stepmother to a girl is a different thing to a second wife to a man!*; – *If being a stepmother has worked out very well stepmother loves her stepchildren very much*; – *A day is sometimes our mother, sometimes our stepmother*.

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasi muayyan til vakillarining til orqali o‘ziga xos olamini qurishlaridir. Til, madaniyat va borliqning o‘zaro munosabatlari quyidagicha talqin qilinadi: olamning til orqali ifodalanishi shu tilda gapiruvchi xalqning jamoaviy ijod mahsulidir va har bir yangi avlod o‘z ona tili orqali madaniyatning to‘liq shaklini qabul qiladi. Aynan mana shu madaniyatda milliy xarakter, dunyoqarash, axloq kabi tushunchalar o‘z aksini topadi. Til, shunday qilib, olamni va madaniyatni o‘zida aks ettirib faol yaratuvchilik vazifasini bajaradi. Olam manzarasining milliy o‘ziga xosligini xalqning faqat ruhiy holatiga bog‘lash mumkin bo‘lmasada, ammo aslida olamni idrok qilishning butun jarayoniga ruhiy holatgina yangicha tus bera oladi. Chunki borliqni anglab olish – u haqidagi axborotlarni tushuncha va tasavvur shaklida intellektual tarzda qayta ishlashdir, olamni ruhiy nuqtai nazardan idrok qilishda esa dastlab tafakkur va milliy farq xususiyatlari namoyon bo‘lib, u o‘zida “tafakkur psixologiyasi va mental faoliyat” farqlarini aks ettiradi.

References:

- 1.Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва,1993. – С. 37.
- 2.Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984. – С. 247.

¹³ Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта Наук, 2007. – С. 96.



З.Кубрякова Е. С. Язык и Знание: На пути получения знаний в языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 9; Попова З. Д., Стернин И. А.

